



ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

oqsil moddalar, inson organizmi, tabiiy suv havzalari, Baliqchilik fermer xo'jaligi, o'simlikshunoslik, chorvachilik, akvakultura.

Respublikamiz aholisining oqsil moddalariga bolgan talabini qondirishda baliq va baliq mahsulotlari muhim ahamiyatga ega. Baliq insoniyat tomonidan qadim zamonlardan beri iste'mol qilinib kelinadi. Respublika sog'liqni saqlash vazirligining tavsiyasiga ko'ra har bir inson organizmi sog'lom rivojlanishi uchun kuniga 33 g yoki yil davomida 12 kg baliq mahsuloti iste'mol qilishi lozim. Hozirgi kunda baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilayotgan, tabiiy suv havzalaridan ovlanayotgan baliqlar aholi ehtiyojini to'liq qondira olmaydi.

Respublika ichki bozorini baliq mahsuloti bilan ta'minlash tibbiyot va sotsial masala hisoblanadi.

Baliqchilik iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, ancha rentabellik jarayon hisoblanadi. Baliqchilik fermer xo'jaligi o'simlikshunoslik, chorvachilik bilan yonma-yon turadi. Baliqchilik xo'jaligini rivojlantirish yangi-yangi ishchi o'rinlar,

AFRIKA LAQQASI BALIG'INI YETISHTIRISH

Xayrullayev Mirrahmat Patxulla o'gli

Toshkent davlat agrar universiteti

2 kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7232996>

ABSTRACT

Ushbu maqolada uy sharoitida afrika laqqasi balig'ini yetishtirish hamda shu yo'nalishda bir necha variantlarning taklif va mulohazalari ko'rib chiqilgan.

qishloq xo'jaligi sohasining mustahkam tarmog'i hisoblanadi.

2007-yil iyul oyida O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi «Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xavfsizligi oldini olish maqsadida BMT huzuridagi FAO»ga murojaat qiladi. O'zbekistonda baliqchilik yoki akvakulturani rivojlantirishda strategik rejalar tuzishda hamkorlik qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlash yo'li orqali respublikada baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish. Buning natijasida, FAO tomonidan qabul qilingan TER/UZV/3103 (D) «Texnikaviy hamkorlik programmasi loyihasi asosida O'zbekistonda baliqchilik sohasini rivojlantirish bo'yicha strategik rejalar ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashda hamkorlik qilish» dasturi tuzilgan.

Loyiha O'zbekistonda Fanlar Akademiyasi Suv muammolari instituti, zoologiya institutlari bilan birgalikda O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan.



O'zbekiston asosan, dengizlardan ancha uzoq bo'lsa, Orol dengizida baliq ovlanmasa, qanday qilib baliq yetishtiriladi. Baliq ovlash: yovvoyi baliqlar to'dasini ovlash (tabiiy vo'l bilan shakllangan to'da) okean, dengiz, ichki suvliklar.

2. Baliqchilik (akvakultura) ichki suvliklarda sun'iy yo'l bilan baliq ko'paytirish.

Baliq ovlashga nisbatan antropogen ta'sirlarni kompensatsiyalash, suvliklardan oqilona foydalanish, baliq xilma-xilligini saqlash maqsadida keyingi villarda baliqchilik sohasi ancha rivojlanmoqda, ayniqsa tabiiy suvliklarni sun'iy yo'l bilan baliqlashtirish (ko'l-hovuz baliqchilik xo'jaliklari), hovuz baliqchilik xo'jaligi, yaylov baliqchilik xo'jaligi, sadoqlarda baliq yetishtirish, basseynlarda jadal baliq boqish kabi baliqchilik shakllari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Hozirgi kunda aholi xonadonlari va tomorqa uchastkalarida yer maydonining mavjudligi va suv bilan ta'minlash imkoniyatidan kelib chiqqan holda bir necha yo'nalishda afrika laqqasi baliqini yetishtirish mumkin. Shu yo'nalishda bir necha variantlarni taklif etamiz:

1. Yopiq suv ta'minoti tizimi (UZV) – ushbu tizimda 3 dona plastik basseynlar, 1 dona suv tindirish, tozalash basseyni, mexnik va biologik filtr, suv qizdirish uskunasi hamda nasosni o'z ichiga olgan tizim. 8 tonna suv sig'imga ega. Tizim bino, yerto'la yoki issiqxonalar ichiga quriladi. Ushbu tizimning asosiy afzalligi suvni kam sarflashi va baliqni yil davomida yetishtirish imkoniyati mavjudligidadir. Taqdim etiladigan tizimda bir mavsumda (6 oyda) 2 tonna baliq yetishtirish imkoniyati mavjud bo'lib, bir yilda ikki mavsum foydalaniladigan bo'lsa 4 tonna baliq yetishtirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

2. Beton basseynlar – baliq yetishtirish bilan doimiy shug'ullanish istagi bo'lgan tashabbuskorlar tomorqaning ma'lum bir qismida beton basseynlar qurishlari mumkin. Ushbu basseynlarning ustini yengil konstruksiya bilan yopish maqsadga muvofiq bo'lib, yoz oylarida quyosh nurlarining to'g'ridan-to'g'ri tushishidan asrasa, kuz oylarida plyonka bilan o'ragan holda zarur haroratni ushlab imkoniyati tug'iladi. Beton basseynlarda ham baliqni tig'iz o'tqazish hisobiga yuqori hosildorlikka erishiladi.

3. Polietilen basseynlar – hozirgi kunda baliq boqish uchun INTEX kompaniyasi tomonidan ishlab chiqariladigan turli o'lchamdagi basseynlardan foydalanish tajribasi keng qo'llanilmoqda. Ushbu basseynlar mobilligi, foydalanish qulayligi, bino yoki boshqa inshootlardan baliq boqish mavsumida vaqtinchalik foydalanish, mavsumdan tashqari vaqtlarda yig'ishtirib qo'yish imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari yog'och yoki temirdan yasalgan karkaslarga yuqori qalinlikka ega polietilen matolar qoplash hisobiga kichik basseynlar yasali baliq boqish tajribasi ham mavjud.

4. Tuproq havzalar – quyosh energiyasidan samarali foydalanish hisobiga baliq yetishtirish uchun arzon hovuz yaratish imkoniyati. Bunda tomorqa uchastkasining suv bilan ta'minlash mumkin bo'lgan qismidan turli o'lchamlarda hovuz qurish uchun yerdan chuqurligi 50 sm qilib kovlanadi, kovlash natijasida chiqarilgan tuproqdan damba qilish hisobiga qurilgan hovuzda suv saqlanadigan chuqurlik 1 metrdan ortadi. Hovuz suv bilan to'ldirilganda atrofdagi yer maydonlarida sizot suvlari miqdorini ortib ketishini oldini olish maqsadida hovuz plyonka yoki geomembrana kabi suv o'tkazmaydigan



matolar bilan qoplanadi. Hovuzni suv o'tkazmaydigan mato bilan yopish maqsadida tomonlarining nishabligini kamida 70 gradus bo'lishini ta'minlash lozim. Hovuzdan suv chiqib ketishini ta'minlash maqsadida tubidan quvur (truba) o'tkazish lozim. Quvur uchi atrofni chiqindilar yig'iladigan alohida nishab joy qilinadi, ushbu joyga suvdagi chiqindilar yig'ilib quvur orqali chiqarib yuborildi. Zarur hollarda hovuzdagi suv to'liq chiqarilishini samarali ta'minlash maqsadida hovuz dambasidan 1-1,5 metr masofada kamida 1x1 metr o'lchamli kichik hovuzcha kovlanadi, ushbu hovuzchaga quvurning bir uchi chiqarilib, quvur uchiga sifon ulanadi. Ushbu sifon hovuzdagi suv sathini ushlab yoki o'zgartirib turishga yordam beradi. Ushbu kichik hovuzcha ham suv o'tkazmaydigan mato bilan qoplanishi maqsadga muvofiq. Sifon orqali hovuzdagi ifloslangan suvni chiqarish, kichik hovuzchada suvni tindirib, tingan suvni yana qayta hovuzga solish ham mumkin. Baliqchilik suv havzasi mahsuldorligining po-tensialiga asoslangan bo'lishi kerak va ma'lum darajada chegaralangan bo'ladi. Agarda ovlanadigan baliqlar to'dasining reproduktiv mahsuldor-ligidan past bo'lsa,

bunday baliqchilik baliq zaxirasiga hech qanday ziyon keltirmaydi va suv havzasining biologik mahsuldorlikidan to'liq foydalanish mumkin. Lekin baliq ovlash reproduktivlik mahsuldor-ligidan yuqori bo'lsa, unda ovlanadigan baliq to'dasi va genofondi butunlay qirilib ketishiga olib kcladi. Hozirgi kunda insoniyat tomoni-dan baliqlar vahshiylarcha ovlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mavjud suv havzalaridagi ovlanadigan bahq zaxiralari holatini ilmiy asoslamay turib, doimiy monitoring o'tkazinasdan turib, baliqchilik xo'jaligining biologik asoslari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib suv havzalarining bioresurslaridan ratsional foydalanish mumkin emas.

Modomiki, tabiiy suv havzalarida baliq mahsuldorligi keskin kamayib ketishi xavfi bor ekan, undagi genofondni saqlash va ko'paytirish maqsadida hovuz baliqchiligini rivojlantirish, baliq ovlashdan baliq o'stirishga o'tish davr talabidir. Konfutsiyning quyidagi fikriga e'tibor bering: «Baliq tutgan boy emas, baliqni tushungan, o'rgangan, havotini yaxshi bilgan boydir».

References:

1. Арнолд И.Н. Основы прудового хозяйства. Сельхозгиз. 1931.
2. Ахмедов Х.Ю., Рахматуллаева Г.М. Использование ряски (лемна гибба) и азоллы (азолла саролиана) в качестве основного корма при выращивании карпа и белого амура. В кн. Сборник статей по проблемам рыбного хозяйства Узбекистана. —Ташкент, 2006.
3. Винберг. Методические рекомендации по сбору и обработке материалов при гидробиологических исследованиях на пресноводных водоёмах. ГОСНИИОРХ «промрыбвод». —Ленинград. 1984.
4. Виноградив В.К. Руководства по биотехники разведение и выращивания растительных рыб. М. ВНИИПРХ. - М., 1975.
5. Воснетсов В.В. Этап развития системы органов связанных с питанием у леща, воблы, и сазана Лобаратория. Екологии, морфологии института эволюции и морфологии животных им Севериевыи-1948.



6. Qurbonov R.B., Xalpayev 1.1. O 'zbekiston Respublikasi mintaqalarida intensiv baliq yetishtirish bo'yicha tavsiyalar. —Toshkent, 2011. 3—19-betlar.
7. Kurbanov. R.B. INSTRUKTSIYa po sostavleniyu tipovogo pasporta ryboxozyatvennogo vodoyomov. —Tashkent, 2006.